



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKA BO'LIMI



TOSHKENT SHAHRIDA 2020-YIL YANVAR-FEVRAL OYLARI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 10404,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,0% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 108,6 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 94,3 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 114,5 % hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 100,9 % ni tashkil qildi.

Sanoat mahsuloti hajmi 10404,1 mlrd. so'mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,0 % ni tashkil etdi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2 895,5 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 108,6 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,8% ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 57,6 %

2020-YILNING YANVAR-FEVRAL OYLARIDA ASOSIY IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA SANOAT ISHLAB CHIQARISH TARKIBI


Umumiy hajmdagi ulushi




**Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 94,3 %)



Ishlab chiqaradigan sanoat
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 108,6 %)




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 114,5 %)



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya
tizimi, chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 100,9%)

TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-fevral oylarida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2112,6 mld. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidagi ulushi 20,3 % ni tashkil etgan.



Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish indeksi 99,6 % va boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 113,8 % tashkil etdi.



TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI

TABIYY GAZ VA XOM NEFT QAZIB OLİSH



2019-yil yanvar-fevral oylarida
1767,1 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2019-yil yanvar-fevralga
nisbatan 99,6 % da

2020-yil yanvar-fevral oylarida
2090,7 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

BOSHQA TOG‘-KON SANOATI



2019-yil yanvar-fevral oylarida
16,5 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan


2019-yil yanvar-fevralga
nisbatan 113,8 % da

2020-yil yanvar-fevral oylarida
19,5 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7228,1 mld. soʻmni va oʻtgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 108,6 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi – 6,5 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish – 23,2 %, oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish – 33,7 %, quyi texnologiyali ishlab chiqarish esa – 36,6 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʼyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



● Yuqori texnologiyali ● O'rta-yuqori texnologiyali ● O'rta -quyi texnologiyali
● Quyi texnologiyali

Oʻz navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan kiyim ishlab chiqarish sohasi 8,1 % ga, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 23,9 % ga oshdi.

Shu bilan bir qatorda, boshqa nometal mineral mahsulot ishlab chiqarish 2,2 % ga, elektr uskunalari ishlab chiqarish 14,3 % ga kamaydi.

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



2019-yil yanvar-fevral oylarida
572,4 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2019-yil yanvarg-fevral
oylariga nisbatan 101,6 %
da

2020-yil yanvar-fevral oylarida
668,6 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ICHIMLIK ISHLAB CHIQARISH



2019-yil yanvar-fevral oylarida
264,1 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2019-yil yanvar-fevral
oylariga nisbatan 118,4 % da



2020-yil yanvar-fevral oylarida
430,8 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

TEKSTIL MAHSULOTLARI



2019-yil yanvar-fevral oylarida
473,5 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2019-yil yanvar-fevral
oylariga nisbatan 108,8 %
da

2020-yil yanvar-fevral oylarida
661,3 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI



2019-yil yanvar-fevral oylarida
159,6 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2019-yil yanvar-fevral
oylariga nisbatan 115,7 % da

2020-yil yanvar-fevral oylarida
174,9 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

AVTOTRANSSPORT VOSITALARI, TREYLERLAR VA YARIM TIRKAMALAR



2019-yil yanvar-fevral oylarida
43,3 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan




2019-yil yanvar-fevral
oylariga nisbatan 99,7 % da

2020-yil yanvar-fevral oylarida
63,8 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



ELEKTR, GAZ, BUG' BILAN TA'MINLASH VA HAVONI KONDITSIYALASH

2020-yil yanvar-fevral oylarida korxonalar tomonidan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari sohasi bo'yicha 914,0 mld. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi - 114,5 % ni tashkil etdi.



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 16,3 % ga ko'paydi.

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 4,8 % ga o'sdi.

SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 149,3 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 1,4 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2020-yil yanvar-fevral oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar indeksi 100,9 % tashkil etdi.

ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 2 895,5 mld. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 % ni tashkil etdi. Umumiy sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishda iste'mol tovarlarining ulushi 27,8 %.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati, % da




ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 847,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 29,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1 880,5 mlrd. so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 64,9 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 167,4 mlrd. so‘m hisoblanib jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 5,8 % tashkil etdi.


2020-YILNING YANVAR-FEVRAL OYLARIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % da

Toshkent shahrida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng ko'p ulush Bektemir (shahar iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida, 15,0%), Chilonzor (12,1 %), Yashnobod (11,3%), Mirzo Ulug'bek (9,8 %) va Shayxontohur (9,6%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (5,5%), Uchtepa (5,9 %) va Yunusobod (6,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.





2020-YILNING YANVAR-FEVRAL OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING O'SISH SUR'ATI, % DA



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish sur'atlari Bektemir (126,2 %), Shayxontohur (113,6 %) va Mirobod tumanlarida (113,1 %) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Sergeli (84,7 %), Yunusobod (97,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.




HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHDAGI O'RNI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Yashnabod (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 26,9 % ulushini), Mirzo Ulug'bek (11,0 %), Bektemir (8,7 %), Mirobod (7,9 %), Olmazor (7,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Uchtepa (4,9 %), Chilonzor (5,3 %), Sergeli (6,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2020-YILNING YANVAR-FEVRAL OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % da





SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 57,6 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Yunusobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 91,7 %), Chilonzor (90,5 %), Uchtepa (90,0) va Olmazor (85,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Yashnobod (29,3 %), Mirzo Ulug'bek (35,0 %) va Mirobod (42,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA

